

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
O'QITUVCHI NUTQ MADANIYATI: TALABLAR,
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Isoqjanova Aziza Inomiddin qizi
G'aniyeva Gulchiroy Hamidillo qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda o'qituvchi nutq madaniyati, uning asosiy talablari va ta'lim jarayonidagi o'rni yoritilgan. Pedagogning nutqiy savodxonligi, aniq va tushunarli ifoda, emotsional ta'sirchanlik, muloqot madaniyati hamda pedagogik etikaning nutqga ta'siri kabi jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchilar duch kelayotgan asosiy muammolar — dialektizm va tildagi xatolar, diksiyaning sustligi, auditoriya bilan muloqotda noqulaylik, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashda nutqning yetarlicha rivojlanmagani kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish, dars jarayonining samaradorligini oshirish va sifatli ta'lim berishda nutqning muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'qituvchi nutqi, nutq madaniyati, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiya, pedagogik mahorat, o'quvchi–o'qituvchi munosabatlari, adabiy til me'yorlari, talaffuz madaniyati, ifodali nutq, psixologik moslashuv, pedagogik etika, ta'sirchan nutq, zamonaviy ta'lim, muloqot texnikasi, og'zaki va yozma nutq, raqamli ta'lim, nutq madaniyati muammolari, o'qituvchi malakasi, pedagogik texnologiyalar, nutq tahlili, ijtimoiy–psixologik omillar.

Аннотация. В данной научной работе освещаются культура речи учителя, ее основные требования и роль в образовательном процессе. Проанализированы такие аспекты, как речевая грамотность педагога, четкость и доступность изложения, эмоциональная выразительность, культура общения, а также влияние педагогической этики на речь. Кроме

того, рассматриваются основные проблемы, с которыми сталкиваются учителя, включая диалектизмы и языковые ошибки, недостаточную дикцию, трудности в общении с аудиторией, а также недостаточный уровень развития речи при работе с современными технологиями. Результаты исследования показывают, что совершенствование культуры речи учителей является важным фактором повышения эффективности учебного процесса и обеспечения качественного образования.

Ключевые слова: *речь учителя, культура речи, педагогическое общение, коммуникативная компетентность, педагогическое мастерство, отношения «ученик–учитель», нормы литературного языка, культура произношения, выразительная речь, психологическая адаптация, педагогическая этика, воздействующая речь, современное образование, техника общения, устная и письменная речь, цифровое образование, проблемы культуры речи, квалификация учителя, педагогические технологии, анализ речи, социально-психологические факторы.*

Abstract. *This scientific study examines teachers' speech culture, its fundamental requirements, and its role in the educational process. The analysis focuses on aspects such as pedagogical speech literacy, clarity and comprehensibility of expression, emotional expressiveness, communication culture, and the influence of pedagogical ethics on speech. Additionally, the study addresses key challenges faced by teachers, including dialectal usage and linguistic errors, weak diction, difficulties in interacting with an audience, and insufficient speech development when working with modern technologies. The research findings demonstrate that improving teachers' speech culture is a crucial factor in enhancing the effectiveness of the teaching process and ensuring high-quality education.*

Keywords: *teacher speech, speech culture, pedagogical communication, communicative competence, pedagogical mastery, student–teacher relations, norms of the literary language, pronunciation culture, expressive speech, psychological adaptation, pedagogical ethics, persuasive speech, modern*

education, communication techniques, oral and written speech, digital education, speech culture issues, teacher qualification, pedagogical technologies, speech analysis, socio-psychological factors.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar keskin o'zgarib bormoqda. Jamiyatda raqobatbardosh, bilimdon, mustaqil fikrlovchi, kommunikativ jihatdan yetuk shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bunday shaxslarni shakllantirish esa, avvalo, o'qituvchi faoliyatining samaradorligiga, uning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlariga, eng muhimi — nutq madaniyatining mukammalligiga bevosita bog'liq.

Nutq madaniyati o'qituvchining kasbiy kompetensiyalaridan biri bo'libgina qolmay, ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi omil sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi bilimni, tarbiyani, ma'naviy qadriyatlarni, ilmiy tushunchalarni o'quvchilarga avvalo so'z orqali yetkazadi. Darsning tushunarli yoki murakkab bo'lishi, o'quvchilarning mavzuga qiziqishi, sinfda sog'lom psixologik muhitning shakllanishi, o'quvchi-o'qituvchi munosabatlarining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining qanday gapirishi, qanday ohangda murojaat qilishi, nutqni mantiqan va emotsional jihatdan qanday qurishiga bog'liq.

Zamonaviy ta'limda pedagogik muloqotning roli ortib borayotgani, raqamli o'quv muhitida talab etilayotgan yangi yondashuvlar, onlayn darslarda to'g'ri nutq texnikasining ahamiyati, kommunikativ kompetensiyaning xalqaro standartlardagi o'рни mazkur mavzuning zamonaviy ta'lim tizimi uchun naqadar dolzarb ekanini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar — yangi pedagogik standartlar, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta'lim konsepsiyasi, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi jarayonlar o'qituvchilardan yanada yuqori kommunikativ savodxonlikni talab qilmoqda. Bu esa nutq madaniyati masalasini faqat til masalasi sifatida emas, balki pedagogik mahorat, psixologik yondashuv, professional etika va shaxsiy madaniyatning ajralmas qismi

sifatida o'rganishni taqozo etadi. Shu ma'noda o'qituvchining nutq madaniyati, unga qo'yilgan talablar, mavjud muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi o'qituvchilar malakasini oshirish, dars sifatini yuksaltirish, pedagogik muloqotni takomillashtirish, o'quvchilar bilan sog'lom psixologik va kommunikativ munosabatni shakllantirish zaruratidan kelib chiqadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev maktabgacha va maktab ta'limi sifatini oshirish, pedagoglar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. O'quvchilarning fanlarga qiziqishi va o'rganishi ko'p jihatdan murabbiylarning bilim va mahoratiga bog'liq. Shu bois pedagoglarning malakasini oshirishga zarur sharoit yaratilib, baholash tizimi takomillashtirib borilmoqda. Mutasaddilar avvalo shu haqda axborot berdi. Qayd etilganidek, attestatsiyada ilg'or texnologiyalarga asoslangan yangi tartib joriy etilgan. Unda 190 mingdan ziyod o'qituvchilar qatnashib, shundan 51 ming nafarining toifasi oshirilgan. Maktablarda bilimli va izlanuvchan pedagoglar ko'payishini doimiy rag'batlantirish zarurligi ta'kidlandi. 2025-yil sentabrdan oliy va birinchi malaka toifasiga ega o'qituvchilarning oylik maoshini oshirish taklifi bildirildi. Attestatsiyadan o'tolmagan, tajribasi yetarli bo'lmagan o'qituvchilar uchun alohida dastur ishlab chiqib, malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Bu borada malaka oshirish markazlari hamda pedagogika kollejlari imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur. Shu maqsadda, Prezident maktabi tajribasi asosida, Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida bog'cha va maktablarning rahbar hamda pedagoglarini har 5 yilda malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilishi belgilandi. Hududlardagi 11 ta pedagogika kollejini Malaka oshirish markazlari tasarrufiga o'tkazib, xorijdan trenerlarni jalb etish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, kam quvvatda ishlayotgan pedagogika kollejlari negizida bog'cha va maktablar, texnikumlar, "Barkamol avlod" maktabi tashkil qilinishi aytiladi. Ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida o'tgan yili 500 ta maktabda Prezident maktabi baholash tizimi joriy etilgan edi. Buning samarasida ulardagi o'quvchilarning o'zlashtirishi 53 foizdan 59 foizga oshgan. Yuqori natijaga

erishgan maktablar rahbariyati va o'qituvchilariga 40 foizgacha ustama belgilangan. Shu bois ushbu baholash tizimi yangi o'quv yilidan yana 1 mingga maktabda qo'llana boshlaydi. Ularga 182 ta ixtisoslashgan hamda 500 ta tajribadan o'tgan maktab biriktiriladi. Shuningdek, 270 ta maktab interaktiv doska, 365 tasi kompyuter sinflari bilan jihozlanadi. Taqdimotda Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti negizida Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish taklifi ham muhokama qilindi. Yangilangan institutga "mahalla – ota-ona – maktab" hamkorligini kuchaytirish, ota-onalar va bolalar uchun tarbiyaga oid adabiyotlar yaratish, jadidlarning tarbiyaviy qarashlarini ilmiy tadqiq etish kabi vazifalar qo'yiladi. 5 ta ixtisoslik bo'yicha Ilmiy kengash faoliyati hamda magistratura va doktorantura bo'yicha kadrlar tayyorlash ham yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, Bahodir Jalolov va Oksana Chusovitina sport mahorati maktablarida xalqaro uslublarni joriy etish, o'quv va mashg'ulotlar sifatini oshirish masalalariga to'xtalib o'tildi. Davlatimiz rahbari pedagoglar tayyorlash sifatini oshirish, adolatli baholash va rag'bat tizimini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsi markaziy o'rinda turadi. Ta'lim sifati, o'quvchi dunyoqarashi, bilimlarni qabul qilish jarayoni, o'quv muhitidagi psixologik holat, hatto o'quvchilarning kelajakda kasb tanlashi ham ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy fazilatlariga bog'liq bo'ladi. Bu fazilatlar ichida nutq madaniyati eng muhim va ajralmas kasbiy kompetensiya sanaladi. Chunki o'qituvchi bilimni so'z orqali beradi, tarbiyani so'z orqali singdiradi, o'quvchini ruhlantiradi, tushuntiradi, izohlaydi, baholaydi, yo'naltiradi, fikrlashga undaydi. Shunday ekan, nutq madaniyati faqat til bilimining o'zi emas, balki pedagogik mahoratning poydevori, ta'lim jarayonining yuragi, o'qituvchining kasbiy sha'ningining asosiy ko'rsatkichidir.

O'qituvchining nutq madaniyati deganda uning o'quvchilar bilan muloqotda adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ravon, aniq, ifodali, mantiqli, ta'sirchan, etika qoidalariga mos va pedagogik vaziyatga moslashtirilgan nutqni

qo'llay olishi tushuniladi. Nutq madaniyati yillar davomida shakllanadi, uzluksiz takomillashuvni talab qiladi va o'qituvchining kasbiy rivojida eng zarur sohalardan biridir. Nutq madaniyati o'zida bir necha jihatlarni mujassam etadi. Ovoz madaniyati, talaffuz me'yorlari, grammatik aniqlik, so'z boyligi, uslubiy to'g'rilik, muloqot madaniyati, psixologik moslashuvchanlik, mimika va pantomimikaning joyida qo'llanishi, murakkab fikrlarni sodda yetkazish, tarbiyaviy yo'nalish va pedagogik etikaga moslik — bularning barchasi nutq madaniyati tarkibiy qismlaridir. O'qituvchi nutqi bir vaqtning o'zida axborot beruvchi, tarbiyalovchi, yetaklovchi, rag'batlantiruvchi va nazorat qiluvchi vosita sifatida ishlaydi. Shu bois o'qituvchi har bir so'zining kuchi, ohangi, ta'siri, o'quvchi ongiga qanday yetishi haqida doimo o'ylashi lozim.

O'qituvchi nutqi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. O'quvchi darsni tushunish jarayonida, o'qituvchining nutqi orqali ilmiy tushunchalarni qabul qiladi. Agar nutq noaniq, chalkash, grammatik jihatdan xato yoki juda murakkab bo'lsa, o'quvchi bilimni qabul qilishda qiynaladi. Aksincha, nutqi ravon, mantiqli, sodda va obrazli bo'lgan o'qituvchi murakkab mavzularni ham oson tushuntira oladi. Bundan tashqari o'qituvchining nutq ohangi, ovoz kuchi, temp, pauzalarni qo'lla bilishi darsning emotsional fonini belgilaydi, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi yoki pasaytiradi. O'qituvchining nutq madaniyatiga qo'yiladigan talablar juda keng. Avvalo lingvistik talablar mavjud. Bu talablarga adabiy til me'yorlariga amal qilish, talaffuzning to'g'riligiga e'tibor berish, so'z boyligini mavzu mazmuniga moslashtirish, ortiqcha so'zlardan, keraksiz takrorlardan qochish, sodda va tushunarli gaplardan foydalanish kiradi. Pedagogik talablar esa o'qituvchining nutqi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi, o'quvchida ishonch uyg'otishi, mantiqiy izchillikka ega bo'lishi, har bir tushunchaning o'z o'rnida qo'llanishi, dars maqsadiga mos kelishi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Nutq madaniyati psixologik talablarga ham mos kelishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, individual psixologik farqlarini, emotsional holatini hisobga olishi zarur. Buning uchun o'qituvchi nutqida muloyimlik,

xushmuomalalik, empatiya, sabr-toqat, hurmat va mehribonlik hukm suradi. O'quvchi xato qilganida keskin tanqid, haqorat yoki kamsitish o'rniga, o'qituvchi konstruktiv tushuntirish, qo'llab-quvvatlovchi iboralar orqali uning ruhiyatini asray olishi muhimdir.

Nutq madaniyatiga estetika ham taalluqli. Ovoz ohangi yoqimli, temp optimal, urg'ular o'rinda bo'lishi, so'zlar tiniq talaffuz qilinishi o'quvchi uchun qulay eshitilish muhitini yaratadi. Ko'p hollarda o'quvchi darsdan charchab, zerikib chiqishining sababi o'qituvchining monoton, sust, his-tuyg'udan xoli nutqi bo'lishi mumkin. Aksincha, ovoz balansi joyida bo'lgan, ilhomli, jonli, emotsional nutq o'quvchilarning e'tiborini jalb etadi, ularni faol ishtirokga chorlaydi.

Biroq amaliyotda o'qituvchilar nutq madaniyatiga doir ko'plab muammolarga duch kelishadi. Eng ko'p uchraydigan muammolardan biri adabiy til me'yorlariga mutanosib bo'lmagan nutqdir. Ayrim o'qituvchilar dialekt so'zlarni ko'p qo'llashi, grammatik xatolarga yo'l qo'yishi, keraksiz so'zlarni haddan ziyod takrorlashi natijasida darsning ta'sirchanligi pasayadi. Shuningdek, nutqning juda baland yoki juda past ovozda bo'lishi, ovozning bir ohangda davom etishi, mantiqiy urg'ularning to'g'ri qo'llanmasligi ham o'quvchilarning e'tiborini susaytiradi. Nutqdagi pedagogik muammolardan biri buyruq ohangida gapirish, o'quvchini qo'rqitish orqali boshqarishga urinish, tanqidni haddan tashqari ko'paytirishdir. Bunday nutq turidagi o'qituvchi nafaqat o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini yo'qotadi, balki uning psixologik holatini ham salbiy o'zgartiradi. O'quvchi o'zini kamsitilgandek his qiladi, tashabbus ko'rsata olmaydi, fikr bildirishdan qo'rqadi. Nutq madaniyatining yana bir katta muammosi shoshma-shosharlik, darsni o'tamiz degan shoshqinlik tufayli o'qituvchining nutqi juda tezlashib ketishi yoki har bir ibora ortidan keraksiz pauzalar berilishi natijasida darsning tabiiy ritmi buzilishi sanaladi. Bundan tashqari paralingvistik muammolar — masalan, ko'z bilan aloqa qilmaslik, imo-ishoralar, qo'llarni keraksiz harakatlantirish, o'quvchilarga ortiqcha tikilish kabi holatlar muloqot sifatini pasaytiradi.

XULOSA

O'qituvchi nutq madaniyati ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Nutqi ravon, aniq, madaniyatli va ta'sirchan bo'lgan pedagog o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatadi, ularni tinglay oladi, fikrlashga undaydi va bilimlarni tushunarli yetkazadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi nutqiga qo'yilgan talablar — to'g'ri talaffuz, adabiy til normalariga rioya qilish, pedagogik etika, muloqot texnikasi, emotsional barqarorlik va tinglovchini hurmat qilish — o'quvchi shaxsining shakllanishida kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, amaliyotda uchraydigan muammolar ham mavjud: dialekt va sheva aralashmalari, tez yoki juda past ohangda gapirish, so'z boyligining cheklanganligi, auditoriya bilan muloqotda noaniqlik, zamonaviy texnologiyalar fonida nutq ko'nikmalarining sustlashuvi kabi holatlar o'qituvchilarning kasbiy samaradorligini pasaytiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilarning nutq madaniyatini uzluksiz rivojlantirish, malaka oshirish kurslari, psixologik va pedagogik treninglar, notiqlik san'ati bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi nutq madaniyati nafaqat dars jarayonining muvaffaqiyatini, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini ham belgilaydi. Nutqi boy, fikri aniq, muloqoti samarali o'qituvchi — zamonaviy ta'limning poydevorini yaratuvchi yetakchi shaxsdir. Shuning uchun nutq madaniyatini rivojlantirish pedagogning doimiy va ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abduazizov A. Nutq madaniyati va uning asoslari. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
2. Yo'ldoshev J., Sayfullayeva R. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Mamajonov A. Pedagogik mahorat va pedagogik muloqot. Toshkent: Fan.
4. Hasanov B. O'qituvchi nutq madaniyatining psixologik asoslari. Toshkent.
5. G'ulomov A., Qosimov B. O'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi.
6. Ochildiyeu A. Pedagogik kommunikatsiya asoslari. Samarqand.

7. Inoyatov A. Zamonaviy ta'limda pedagog kompetensiyasi. Toshkent.
8. Vygotskiy L. Psixologiya va ta'lim nazariyasi. Moskva.
9. Komenskiy Ya. K. Didaktika asoslari. Praga.
10. UNESCO. Teacher Communication Competence. Paris.
11. Hymes D. Communicative Competence Theory. New York.
12. Sh. Mirziyoyev. Ta'lim sohasiga doir farmon va qarorlar to'plami. Toshkent

Elektron resurslar:

<https://www.uzedu.uz>

<https://lex.uz>

<https://kitob.uz>

<https://cyberleninka.ru>

<https://eric.ed.gov>

<https://unesco.org>

<https://researchgate.net>